O’zbek tilshunos olimi jahon e’tirofida

Ma’lumki, har bir millat faxrlanishi kerak bo’lgan eng oliy qadriyat bu ularning ona tilidir, chunki har bir til insoniyat olamining nomoddiy va ma’naviy merosini asrashning eng kuchli quroli hisoblanadi. U bilan inson olamni idrok qiladi va uning sir-sinoatlar tilsimini ochadi. Shunday ekan, tilsimlar kaliti hisoblamish millatlarning “Ona tili” jahon xalqlari tomonidan har yili 21-fevral sanasida “Xalqaro ona tili kuni” bayram sifatida nishonlanadi, bu bayram munosabati bilan har bir til egasining o’z Vatani va o’z tiliga bo’lgan muhabbati, unga bo’lgan ehtiromi, qadrlash tuyg’ulari yangilanib boraveradi.

Barchamizga ayonki, mazkur sana YuNESKO tomonidan turli tillar va dunyo xalqlari madaniyatini muhafaza qilish maqsadida 2000-yildan buyon xalqaro miqyosda keng nishonlanib kelinmoqda. Bu sana 1952-yilning 21-fevral kuni bo’lib o’tgan voqea – Bangladesh poytaxti Dakka shahrida o’z ona tili – bengal tilini davlat tili darajasiga ko’tarish va uni himoya qilish maqsadida shahar ko’chalariga chiqqan talabalarning politsiya hodimlari tomonidan o’qqa tutilishi bilan bog’liq” ekanligi manbalardan ma’lum.

Bangladesh davlatidagi YuNESKOning Xalqaro ona tili instituti tomonidan “Ona tili”ni asrash, butun dunyodagi til va madaniy an’analar bilan yanada to’liqroq tanishish va ularni saqlash, bag’rikenglik va muloqotga asoslangan birdamlikni mustahkamlash maqsadida Xalqaro ona tili kuniga mukofot joriy etilgan bo’lib, ushbu mukofot butun dunyoda xalqlar o’z ona tilini himoya qilish va targ’ib qilish, amaliyoti va tadqiqotlari bilan bog’liq ulkan hissasi uchun tilshunoslarga berilib kelinmoqda. Ushbu mukofot har yili 21-fevralda Xalqaro ona tili kunida Bangladeshning poytaxti Dakka shahridagi Xalqaro ona tili institutida ushbu mukofot bilan taqdirlash marosimi bo’lib o’tadi.

Ushbu taqdirlash an’anasining davomi sifatida 2020-yil iyul oyida YuNESKOning Bangladeshdagi Xalqaro ona tili instituti 2021-yil uchun “Xalqaro ona tili mukofoti” tanlovini e’lon qildi. Ushbu mukofotning “Ona tilining xalqaro miqyosdagi tadqiqi” yo’nalishiga ariza topshirgan dunyo tilshunos olimlari orasidan 2 nafar tilshunos olim - Janubiy Amerikadagi Boliviya davlatidan hamda O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yosh tilshunos olimi, filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim G’ulom Mirzayevich Ismoilov loyiq deb topildi.



O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan G’ulom Ismoilovni ushbu mukofot bilan qutlaymiz!

O’zbek tilshunosligi dong’ini dunyoga taratish yo’lidagi ilmiy izlanishlarida yanada yuksak cho’qqilarni zabt etishiga, muvaffaqiyatlar bardavom bo’lishiga tilakdoshmiz.